

ABDUVAITOVA RA'NO SHARAFIDDIN QIZI

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti “Siyosatshunoslik”
yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

To'rt

Oyimning tug'ilgan kuni
Tabriklarman men uni
To'rt pishirdim bir qarang
Shamlari ham rang-barang
Shokaladdek qop-qora
Ishtahang ochar qara
Shakl olgandir oydan
Lek qilingan u loydan

Ekzyuperiga xat

Azizim Ekzyuperi
Eslab o'sha nolani
Topdim, topdim bir qarang
Yashil sharfli Bolani

U ketmagan osmonga
Sahrolarda qolmagan
Yo'q yaqin biz tomonga
Oligga ketomagan

Oqshomda yumib ko'zni,
Yulduzlarga men boqdim
Eshitib g'alat so'zni
Ko'ngil eshigin qoqdim

Qo'ng'iroqdek bir kulgu
Nur sochib u olamga
Dilimga solib tuyg'u
Jon ulashdi qalamga

Kichkina shahzodani
Izlagansiz albatta

Aslidachi, biz bilan
Kulib yashar u qalbdagi
Abduvaitova Ra'no

Rozi emasman...

Uzoq zulmat. Qish bo'lgani bois tun uzaygan. Oppoq qor yog'ayapdi, lekin ko'chada qor odam yasab o'ynaydigan bolalar yo'q. Hamma tahlikada. Sababi tun uzayib qish qahrini ko'rsatayotgani emas, urush degan balo edi. Bir vaqtlar barcha mehnat qilish uchun, yoki biror yumush uchun, to'lib yuradigan ko'chada hech kim yo'q. Faqat bir nechta it izlari bor. Shundayin bir zulmatda ayol ovozi hamma joyni daxshatga soldi.

-Rozimasman, shu urushingdan, sendan rozimasman...

Qani... Qani endi go'dakligingda bedavo dardga chalinib o'lsang qani..

Do'zaxdan qaytgan otangni isnod bilan olib ketding...deya beshikka qarab uvvos solardi. Bu daxshatli o'kinchlarni eshitgan odamlar bir uyum bo'lib turib olishgandi

-Yo tavba, o'z bolasiga o'lim tilayotgan kim bo'ldi?

-Ha bumi "Qochoqning onasi"

Salom sotiladi

Maqsudlarning oilasi tadbirkorlar oilasi, dadasi-fermer, oyisining qandolat zavodi bor. Opasi ham yosh bo'lishiga qaramay, tikuvchilik qiladi. Shu boisdan uyda hamma mavzular tijorat haqida edi. Maqsud ham biror bir ish qilib o'z biznesini yo'lga qo'yishga harakat qilardi. Uydagilarning "Avval maktabni tugatib ol, keyin kasb-hunar egallaysan" degan gaplari esa uning jig'iga tegardi.

Dhunday o'ylar bilan maktabga ketayotganida oldidan Samat bobo chiqib qoldi. Hayol bilan bo'lib unga salom bermay o'tgan ekan. Samad bobo:

- Maqsud nima bo'ldi, nima salomni sotib olayabsanmi, nega salom bermaysan?-dedi. Boboning gaplarini oxirigacha eshitmasdan, uning miyasiga "Salomni pullash" g'oyasi tug'uldi. Borasolib bir salomning narxini yozib maktabga kirishga osib qo'ydi.buni qarang-ki, bu ishini maktab direktori ham qo'llab-quvvatladi. Xullas, Maqsud hammaga salom sotaverib boyib ketdi, ammo uning uyidagilar oilasi brogan sari qashshoqlashib boraveribdi, Maqsud esa ularni ko'rib hayrat bilan

- Sizlarga nima bolayabdi?-deb so'rabdi.

Shunda dadasi va oyisi xafa bo'lib:

- O'g'lim biz har gal salom berganimizda pul beryaybmiz debdi. Shunda Maqsud o'zining noshudligini tushunib yetibdi. Qilgan biznesi aslida yaxshi emasligi tushunibdi... shu mahal uni oyisi uyg'otibdi
- Bolajonim turaqol, maktabga kech qolasan!

BADIIY TARJIMALARDA SO‘Z SEMANTIKASINING IFODALANISHI

Maripova Marjona

Andijon davlat chet tillari instituti

Filologiya va tillarni o'qitish:

nemis tili yo'nalishi 1-kurs talabasi

Semasiologiya tilshunoslikning so‘z ma’nolarini tekshiruvchi bo‘limi bo‘lib, leksikologiyaga bevosita aloqadordir. Yuqorida aytib o‘tilganidek, so‘z ma’nolari sinxronik (tasviriy) va diaxronik (tarixiy) tomondan o‘rganiladi. So‘z ma’nolarida yuz bergan o‘zgarishlar tarixiy jihatdan tekshirilganda, til taraqqiyotining keyingi bosqichida paydo bo‘lgan yangi ma’nolar ham ko‘zda tutiladi. So‘zlarning leksik ma’nolari, kontekstda so‘z ma’nolarining o‘zgarib turishi, polisemiya, omonim, sinonim va antonim kabi ma’no kategoriyalari semasiologiyada o‘rganiladi.

Leksikologiyada semasiologiyaga aloqador yana bir soha borki bu soha onomasiologiya deb yuritiladi. Bu ikki soha o‘zaro bog‘liq. Ammo semasiologiya va onomasiologiya leksik birlikka bo‘lgan munosabatlari, tekshirish obyekti, metodi va vazifalari jihatidan o‘zaro farq qiladi. Semasiologiyada so‘z ma’nolari bilan borliqdagi narsa–hodisalar orasidagi bog‘lanish, bu bog‘lanishning xarakteri kabi masalalar o‘rganilsa, onomasiologiyada narsa-chiziq hodisalarning yakka nomlanish masalalari o‘rganiladi. Qisqacha aytganda, ma’no problemi semasiologiyada, ammo yakka xolda nomlanish muammosi onomasiologiyada tekshiriladi. Masalan, *Granatapfel* anor so‘zining meva daraxtlaridan biri turini va uning hosilini anglatishi, *sein Gesicht ist wie ein Granatapfel* uning yuzi anor tipidagi kontekstlarda ko‘chma ma’noda kelishi masalalari semasiologiyaning vazifasi hisoblansa, lekin biror joyda qizili bo‘lgan bolaga Anor Anorxon, Anorbek, Anorboy deb nom qo‘yish masalasi onomasiologiyaning vazifasi hisoblanadi, ya’ni so‘zning pragmatik ma’nosini tashkil qiladi. Onomasiologiyada ayrim